

CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TIL NAZARIYASI

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

BOBURIYLAR SAROYIDA TURKIY TIL MAQOMI: MARK TOUTANT
TALQINIDA¹⁷

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

tibbiyotda tillarni o‘qitish kafedrasini mudiri

Andijon, O‘zbekiston

E-mail: nasriddinova@kuaf.uz

ORCID ID: 0000-0002-6187-8090

ANNOTATSIIYA

KALIT SO‘ZLAR

Ushbu maqolada Mark Toutantning “Le turk est la langue des rois. Un lexique chaghatay-persan à la cour moghole” nomli tadqiqoti asosida Boburiylar saroyida turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy va ramziy maqomi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi Mark Toutant maqolasining asosiy dalillari va xulosalarini o‘zbek ilmiy muhitida sharhlash, ularni Boburiylar saroyining ko‘p tilli muhiti bilan bog‘liq holda tizimlashtirish hamda til, sulolaviy xotira va legitimatsiya o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatishdan iborat. Maqolada tarixiy-qiyosiy, matnshunoslik, filologik va diskursiv tahlil usullari qo‘llanib, Lug‘oti turkiy muqaddimasi, grammatik qurilishi va leksik tarkibi Boburiylarning temuriy-barlos nasabini eslatish bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Boburdan Akbargacha fors tili saroyning amaliy va rasmiy tili sifatida tobora ustunlashgan, biroq turkiy til ajdodlar merosi, hukmdorlik sha’ni va shahzodalar tarbiyasi bilan bog‘liq sulolaviy til sifatida saqlanib qolgan. Lug‘oti turkiy oddiy pedagogik qo‘llanma emas, balki turkiy tilning ilmiy tavsifini berish va uning siyosiy-madaniy nufuzini qayta ta’kidlashga qaratilgan filologik-saroy matni sifatida namoyon bo‘ladi. Xulosa sifatida, Boburiylar saroyida turkiy til “yo‘qolgan til” emas, balki vazifasi o‘zgargan, xotira va legitimatsiya bilan bog‘langan til ekani asoslanadi.

Boburiylar, Mark Toutant, chig‘atoy tili, Lug‘oti turkiy, Avrangzeb, Barlos, til siyosati, temuriy meros, saroy filologiyasi.

Received: February 09, 2026**Accepted:** February 18, 2026**Available online:** May 10, 2026¹⁷ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Nasirdinova Y. Boburiylar saroyida turkiy til maqomi: Mark Toutant talqinida. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 190-201.

THE STATUS OF TURKIC AT THE MUGHAL COURT: MARK TOUTANT'S INTERPRETATION

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna

PhD in Philological Sciences,
Head of the Department of Language Teaching
Andijan Branch of Kokand University
Andijan, Uzbekistan

E-mail: nasriddinova@kuaf.uz

ORCID ID: 0000-0002-6187-8090

ABSTRACT

This article examines the social, political, and symbolic status of Turkic at the Mughal court on the basis of Marc Toutant's study "Le turk est la langue des rois. Un lexique chaghatay-persan à la cour moghole". Its aim is to systematize Toutant's main arguments for an Uzbek scholarly audience and to clarify the relationship between language, dynastic memory, and political legitimation in the Mughal context. The study employs historical-comparative, philological, textual, and discourse-analytical methods. Particular attention is paid to the preface, grammatical structure, and lexical selection of *Lug'oti turkiy*, a Chaghatay-Persian glossary compiled under Aurangzeb. The analysis shows that the text should not be treated as a simple pedagogical handbook. Rather, it functioned as a courtly-philological project aimed at teaching princes, describing Turkic scientifically, and reasserting the prestige of the Timurid-Barlas ancestral language. Although Persian increasingly dominated administration and elite literary culture from Babur to Akbar, Turkic remained present as a dynastic language associated with lineage, princely upbringing, and imperial dignity. The article concludes that Turkic at the Mughal court was not a "lost language" but a language whose function had been transformed: it survived primarily as a medium of memory, legitimacy, and symbolic sovereignty.

KEYWORDS

Mughals, Marc
Toutant, Chaghatay, turkī,
Lug'otiturkiy, Aurangzeb,
Barlas, language policy,
Timurid legacy, court
philology.

СТАТУС ТЮРКСКОГО ЯЗЫКА ПРИ ДВОРЕ БАБУРИДОВ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МАРКА ТУТАНА

Насирдинова Ёркиной Абдумухтаровна

кандидат филологических наук (PhD),

кафедра преподавания языков

Андижанский филиал Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

E-mail: nasriddinova@kuaf.uz

ORCID ID: 0000-0002-6187-8090

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В статье анализируется социально-политический и символический статус тюркского языка при дворе Бабуридов на основе исследования Марка Тутана «Le turk est la langue des rois. Un lexique chaghatay-persan à la cour moghole». Цель работы состоит в систематизированном изложении основных аргументов и выводов автора, а также в интерпретации связи между языком, династической памятью и политической легитимацией. В исследовании использованы сравнительно-исторический, текстологический, филологический и дискурсивный методы. В центре анализа находится <i>Lug‘ati turkiy</i> — чагатайско-персидский словарь эпохи Аурангзеба, который рассматривается не как обычное учебное пособие, а как придворный текст, сочетающий педагогическую, филологическую и идеологическую функции. Установлено, что несмотря на утверждение в период от Бабура до Акбара персидского языка в качестве рабочего и официального придворного языка, тюркский язык не исчез из придворной культуры: он сохранялся как наследие предков, как знак принадлежности к правящей династии и как средство передачи родовой памяти наследникам. Грамматическая структура словаря, орфографические комментарии и отбор лексики показывают стремление представить <i>turki</i> как язык, достойный научного описания и обладающий престижностью в политической сфере. В результате делается вывод, что при дворе Бабуридов тюркский язык был не “утраченным”, а функционально переосмысленным династическим языком.</p>	<p>Бабуриды, Марк Тутан, чагатайский язык, <i>turki</i>, <i>Lug‘ati turkiy</i>, Аурангзеб, Барлас, языковая политика, наследие Темуридов, придворная филология.</p>

KIRISH

XV-XVII asr Sharq davlatlarida til masalasi faqat muloqot vositasi bilan cheklanib qolmay, hokimiyat, nasab, madaniy iyerarxiya va siyosiy ramz bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa ko‘p tilli saroy muhitlarida ma‘lum bir tilning nufuzi uning real qo‘llanilish doirasidan ham kengroq ma‘no kasb etgan. Shu nuqtayi nazardan Boburiylar saroyi o‘ta qiziqarli misoldir: bu yerda fors tili rasmiy boshqaruv va adabiyotning asosiy vositasiga aylangan bo‘lsa ham, sulolaning temuriy va chingiziy kelib chiqishi turkiy tilga alohida ramziy maqom berib turgan. Mark Toutantning 2025-yilda e‘lon qilingan “*Le turk est la langue des rois. Un lexique chaghatay-persan à la cour moghole*” maqolasi aynan ana shu murakkab munosabatni bir lug‘at matni orqali ochib beradi (Toutant M., 2025, 268-271).

Boburiylar saroyi ko‘p tillilikning murakkab namunasi bo‘lib, bu yerda fors tili davlat devoni, tarixnavislik va saroy adabiyotining asosiy vositasiga aylangan edi. Shu bilan birga, sulolaning temuriy va chingiziy ildizlari tufayli turkiy til ham tarixiy nufuzini tamoman yo‘qotmagan. Aynan shu ikki qatlamning o‘zaro munosabati keyingi tadqiqotlarda, ayniqsa Boburiy til siyosatini sharhlagan ishlarda qayta-qayta muhokama qilinadi (Alam M., 1998; Alam M., 2004).

Toutant tadqiqotining markazida Fazlulloxon Barlas tomonidan Zahiriddin Muhammad Boburning 5-avlodi Abu Muzaffar Muhi-ud-din Muhammad Aurangzeb Alamgir hukmronligi davrida tuzilgan *Lug‘oti turkiy* turadi. Mazkur asar forscha-chig‘atoycha (turkiy) lug‘at sifatida uzoq vaqtdan beri G‘arb turkologlarining e‘tiborini tortgan bo‘lsa-da, ko‘pincha u faqat leksik material manbai sifatida baholangan edi. M. Toutant lug‘atni tarixiy hujjat sifatida o‘qiydi va undan Boburiylarning o‘z Movarounnahrlik ajdodlari tili bilan qanday munosabatda bo‘lganini tiklashga urinadi. Shu bilan u lug‘atshunoslik, saroy filologiyasi va siyosiy o‘zlik masalalarini bir nuqtada birlashtiradi (Toutant M., 2025, 271-272).

Mazkur maqolaning maqsadi – Mark Toutantning ushbu talqinini o‘zbek ilmiy muhitiga yaqinlashtirish, uning asosiy dalillari va xulosalarini tizimli ravishda sharhlash, shuningdek, Boburiylar saroyida turkiy tilning maqomi haqidagi kengroq tarixiy xulosalarni ko‘rsatishdir. Tadqiqotning asosiy tezisi shundan iboratki, Boburiylar davrida fors tili amaliy va rasmiy ustunlikni qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, turkiy til temuriy sulolaviy xotira va hukmdorlik g‘oyasining tili sifatida yashab qolgan; *Lug‘oti turkiy* esa ana shu ramziy kapitalni filologik shaklda mustahkamlashga xizmat qilgan matndir (Toutant M., 2025, 268, 273-274, 286-287).

ASOSIY QISM

Boburiylar saroyidagi til masalasini o‘rganishda avvalo fors tilining siyosiy va ma‘muriy mavqei bilan bog‘liq tadqiqotlar muhim o‘rin egallaydi. Muzaffar Alam fors tilining Boburiylar davrida nafaqat adabiy aloqa, balki siyosiy

legitimatsiya va saroy muloqot vositasi sifatida shakllanganini ko'rsatadi (Alam M., 1998; Alam M., 2004). Shu bilan birga, Bobur va Jahongir xotiralari sulola a'zolari uchun turkiy til ajdodlar merosiga daxldor bo'lgan ichki til sifatida saqlanganini anglash imkonini beradi (Babur, 1922; Jahangir, 1909-1914).

Mark Toutant temuriylar davridagi til, hokimiyat va sufiylik munosabatlarini o'rganib, filologik matnlar saroyning o'zini tasavvur qilish usulini ochib berishini ta'kidlaydi (Toutant M., 2016; Toutant M., 2021). Papas va Toutantning umumlashtiruvchi ishlari ham Markaziy Osiyo Temuriy madaniyati datil, genealogiya va siyosiy xotiraning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi (Papas A. & Toutant M., 2022). Chig'atoy tili qurilishi va grammatik tavsif an'anasini tushunishda János Eckmann hamda Robert Ermersning ishlari zarur metodik asos vazifasini bajaradi (Eckmann J., 1966; Ermers R., 1999). Shu nuqtayi nazardan, Toutantning 2025-yildagi maqolasi Boburiylar muhitida lug'at va grammatika kabi yordamchi ko'ringan matnlarning aslida siyosiy-madaniy ahamiyatini ochib beruvchi muhim tadqiqot sifatida ajralib turadi.

Tadqiqotda, birinchidan, Mark Toutantning 2025-yildagi maqolasi asosiy obyekt sifatida tanlanib, undagi dalillar strukturaviy ravishda tahlil qilindi; ikkinchidan, Bobur va Jahongir xotiralari hamda turkiy til siyosatiga doir zamonaviy izlanishlar bilan qiyoslash yo'li qo'llandi.

Metodologik jihatdan ishda uch yo'nalish birlashtirildi: tarixiy-qiyosiy tahlil, matnshunoslik va diskurs tahlili. Tarixiy-qiyosiy usul Boburiylar saroyidagi forsiylashuv va temuriy xotira o'rtasidagi nisbatni aniqlashga xizmat qildi; matnshunoslik yondashuvi *Lug'oti turkiy* muqaddimasi, grammatik bo'limi va leksik tuzilishini ichki mantiq asosida o'qishga imkon berdi; diskurs tahlili esa "podshohlar tili", nasab, ulus va ajdodlar olami kabi tushunchalarning siyosiy-semantik yukini ko'rsatishga yordam berdi. Shuningdek, chig'atoy tili tavsifi va arab grammatika modeli o'rtasidagi aloqani tushunishda umumiy turkologik ishlardan foydalanildi (Eckmann J., 1966; Ermers R., 1999).

M. Toutant maqola kirish qismida Boburiylar til siyosatini ularning nasabiy o'zligini anglamasdan tushunib bo'lmasligini ko'rsatadi. Zahiriddin Bobur otasi tomondan Amir Temur avlodi, onasi tomondan esa Chingizxon nasliga mansub bo'lgani uchun Boburiylar o'zlarini shunchaki Hindiston hukmdorlari emas, balki Temuriylar va Chig'atoy ulusi bilan bog'liq sulola sifatida tasavvur qilganlar. Shu sababli Boburning o'z mashhur xotiralarini turkiy tilda yozgani tasodif emas edi: bu til Temuriylar davrida yuksak adabiy maqomga erishgan bo'lib, Bobur uni nufuzli meros bilan aloqador til sifatida tanlagan (Toutant M., 2025, 268-269).

Temuriylar davriga kelib turkiy allaqachon martabaga, ya'ni saroy va adabiy muhitda yuksak maqom kasb etgan tilga aylangan edi. Shu sababli Bobur Hindistonga faqat siyosiy sulola emas, balki muayyan til-madaniyat xotirasini ham

olib kirdi. Boburiylar uchun turkiy til begona yoki tashqi element bo'lmagan, sulolaning "ona tili", ajdodlar merosini anglatuvchi ichki tarixiy kod sifatida yashagan. Keyingi davrlarda fors tilining kuchayishi ham aynan shu tarixiy qatlamni butunlay bekor qilmagan, balki uning vazifasini o'zgartirgan (Toutant M., 2025, 269).

Bu o'rinda Toutant terminologiya masalasiga ham e'tibor qaratadi. U manbalardagi tilni zamonaviy odatdagi "chig'atoy tili" termini bilan to'la aynanlashtirishdan ehtiyot bo'ladi. Maqolada ta'kidlanishicha, tarixiy mualliflar, jumladan Navoiy va Bobur, o'z tillarini odatda "turkiy" deb ataganlar; "chig'atoy" atamasi esa nisbatan kam qo'llanib, ko'proq yozma tilning yuksak registrini yoki imlo tizimini bildirgan (Toutant M., 2025, 269-270). Bu yerda til nomi ham mafkuraviy yuk tashiydi: "turkiy" atamasi fors tiliga yonma-yon qo'yilgan umumiy madaniy tilni, "chig'atoy" esa uning kitobiy shaklini anglatadi.

Shu bilan birga, Bobur davridagi vaziyat Boburning nevarasi Akbar davriga kelib keskin o'zgaradi. Akbar fors tilini saroyning rasmiy tili sifatida mustahkamladi va forsiyzabon ziyolilarni saroyga jalb qildi. M. Toutantning ko'rsatishicha, bunday siyosat faqat madaniy did bilan emas, balki Movarounnahr ta'sirini kamaytirish maqsadi bilan ham bog'liq bo'lgan (Toutant M., 2025, 269). Natijada turkiy tilda yozilgan matnlar soni kamayadi va tarixshunoslikda Boburiylar saroyini deyarli to'liq forsiylashgan makon sifatida tasvirlash tendensiyasi kuchayadi.

Biroq M. Toutant aynan shu soddalashtirilgan tasavvurga e'tiroz bildiradi. U tarixchilar ko'pincha fors tilining ulkan ahamiyatini to'g'ri qayd etgan bo'lsalar-da, turkiy tilni o'rganish uchun fors tilida tuzilgan ko'plab qo'llanmalar, lug'atlar va grammatik izohlar mavjud bo'lganini yetarli hisobga olmaganini aytadi (Toutant M., 2025, 269-270). Bunday asarlar turkiy tilining butunlay yo'qolib ketmaganini, aksincha u saroy ichida ma'lum ehtiyojga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shunday ekan, Boburiylar saroyida til almashinuvi to'liq uzilish emas, balki funksional qayta taqsimot sifatida ko'rilishi kerak: fors tili boshqaruv va yuksak adabiy muomala vositasiga aylangan bo'lsa, turkiy til nasabiy xotira, ajdodlar merosi va saroy o'zligini eslatuvchi til sifatida saqlanib qolgan.

M. Toutant tahlilining eng kuchli nuqtalaridan biri *Lug'oti turkiy* kirish qismini filologik emas, avvalo sulolaviy matn sifatida o'qishidir. Muqaddimada muallif Fazlulloxon o'z tilshunoslik mahoratini yoki foydalangan manbalarini batafsil ko'rsatishdan ko'ra, o'z nasabi va Barlos urug'i bilan aloqasini urg'ulaydi. U o'zini Chaku Barlos nasliga bog'laydi; bu sulola Amir Temurning eng yaqin safdoshlari va xizmatkorlaridan biri hisoblangan, keyinchalik esa Temuriylar saroyida yuqori mavqega ega bo'lgan (Toutant M., 2025, 272-273). Bundan kelib chiqadiki, lug'atning muqaddimasidayoq muallif lingvistik mavqeidan ko'ra, uning tarixiy-sulolaviy ramziga tayanganini ko'rsatadi.

M. Toutant muqaddimadagi yana bir muhim jihatni ajratib ko'rsatadi: lug'at Avrangzebning buyrug'i bilan, ehtimol uning vorislaridan birini o'qitish maqsadida tuzilgan. Manbalarga ko'ra, Avrangzeb o'g'il-qizlarining ajdodlar tilini o'rganishini istagan (Toutant M., 2025, 273). Bu detal tasodifiy emas, chunki saroyda tilni o'qitish bevosita merosxo'rlik tarbiyasi bilan bog'lanmoqda. Fazlulloxon o'z asarini asoslar ekan, "kalām al-mulūk mulūk al-kalām, lisān al-mulūk mulūk al-alsina" degan hikmatni keltiradi, ya'ni "podshohlarning so'zlari so'zlarning podshohidir, podshohlarning tili tillarning podshohidir" (Toutant M., 2025, 273).

Aynan shu yerda "turkiy – podshohlar tili" g'oyasining mazmuni ochiladi. Toutantning talqiniga ko'ra, fors tilining saroydagi ustun mavqeiga qaramay, turkiy hali ham "lisān al-salāṭīn", ya'ni sultonlar tili sifatida tasavvur qilingan (Toutant M., 2025, 273-274). Bunda gap, ehtimol, amaliy hukumat devonlarida qo'llangan asosiy til haqida emas, balki hukmdorning sulolaviy tilida ketmoqda. Ushbu jihatni kuchaytirish uchun M. Toutant Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va Avrangzebning turkiy til bilan aloqasi haqida qimmatli kuzatuvlar beradi:

Akbarning turkiyni qay darajada bilganiga doir masala bahsli. Biroq bu tilning Boburiylar muhitidan tamoman chiqib ketganini aytish qiyin. Jahongir o'z xotiralarida Hindistonda ulg'ayganiga qaramay, turkiyni yozma va og'zaki shaklda bilishini ta'kidlaydi; u hatto Tatar Begni vorisga turkiy til o'rgatish uchun tayinlaganini qayd etadi. Shoh Jahon bu borada sustroq ko'ringani holda, Avrangzeb Balx va Qandahor tajribasi tufayli chig'atoy turkchasini yaxshi tushungan va bu tilda muloqot qila olgan hukmdor sifatida tilga olinadi (Jahangir, 1909-1914; Toutant M., 2025, 273-274).

Lughat-i turkiy yozilgan paytda turkiy til sof tarixiy xotira bo'lib qolmagan, balki hukmdorning shaxsiy kompetensiyasi va saroy tarbiyasiga daxldor til ham bo'lgan. Shu bilan birga, Fazlulloxonning fikricha, bu til hali o'ziga munosib darajada tartibga solinmagan va batafsil tavsif etilmagan edi (Toutant M., 2025, 274).

Toutant maqolasining filologik jihatdan eng muhim qismi shundan iboratki, u *Lug'oti turkiyni* oddiy ikki tilli so'zlik emas, balki turkiy til haqidagi ixcham, ammo yaxlit risola sifatida ko'rsatadi. Asarning lug'at qismidan oldin o'n besh varaqqa yaqin grammatik muqaddima va alohida imlo izohlari beriladi (M. Toutant 2025, 275). Bu holatning o'ziyoq asarni ko'plab zamondosh qo'llanmalardan ajratib turadi. Ya'ni muallif faqat "falon so'zning forscha ma'nosi bunday" demaydi; u tilning ichki tuzilishini, so'z yasash va qo'shimchalarning ishlashini, yozuvdagi murakkabliklarni ham tushuntirmoqchi bo'ladi.

Maqola muallifi ko'rsatganidek, mazkur grammatik tavsif arab grammatikasi andozalariga tayangan. Fazlulloxon turkiy fe'l shakllarini, zamon va mayl qo'shimchalarini, sifat-dosh va nisbat shakllarini, ot qo'shimchalarini,

ko‘makchilarni, egalik munosabatini, olmoshlar va savol shakllarini sharhlaydi (Toutant M., 2025, 275-277). Bu yondashuv bevosita “kengaytirilgan grammatika” mantig‘iga kiradi: mavjud ilmiy an‘ana, bu yerda arab va fors filologiyasi modeli, yangi tilni tasvirlash uchun qo‘llanadi. Demak, Mughal saroyida turkiy tilga nisbatan ilmiy munosabat mutlaqo tasodifiy emas; u fors filologiyasi bilan bir maydonda fikrlanmoqda.

Ayniqsa, imlo va fonetika bilan bog‘liq sahifalar Toutantning asosiy xulosasini kuchaytiradi. Fazlulloxon arab yozuvida uchta cho‘ziq unidan boshqa vokal tizimi aniq ifodalanmasligini, turkiy til esa bundan ancha murakkab unli tizimga ega ekanini bilgan holda, *fathā*, *kasra*, *zamma*, shuningdek *tafkhīm* va *tarqīq* kabi arab filologiyasiga xos tushunchalar orqali turkiy tovushlarni tavsiflashga urinadi (Toutant M., 2025, 277-279). U “chaghatay imlosi” iborasini ishlatishi ham bejiz emas: bu, Toutant talqiniga ko‘ra, “chaghatay”ning oddiy etnik nom emas, balki sharaflı yozma an‘ana va yuqori registrni anglatishini ko‘rsatadi (Toutant M., 2025, 277-278).

M. Toutant Lug‘oti turkiyning leksik tarkibini tahlil qilib, uni “un certain mélange des genres” sifatida ko‘rsatadi: asar birinchidan infinitiv fe‘llar ro‘yxati, ikkinchidan asosiy va eng katta bo‘lim bo‘lgan oddiy otlar lug‘ati, uchinchidan esa sonlar, tana a‘zolari, hayvonlar, qurollar, metallar, mevalar va uluslar kabi mavzuli ro‘yxatlardan tuzilgan. Bunday tuzilma sirtan qaraganda oddiy lug‘atga o‘xshaydi, ammo Toutant nazarida so‘z tanlovi sof didaktik maqsaddan ancha kengroq. U ayniqsa oddiy otlar bo‘limida so‘zlar birinchi va oxirgi harfga ko‘ra joylashtirilganini ko‘rsatadi; shu tizim ba‘zan lug‘atni sun‘iy to‘ldirishga olib keladi. Bunday tizim ba‘zan tabiiy lug‘atshunoslik mantig‘ini buzadi: ayrim bo‘limlarni “to‘ldirish” uchun gerundiy – fe‘lning otlashgan shakllari, grammatik qo‘shimchalar yoki aslida oddiy otlar qatoriga kirmaydigan unsurlar ham kiritiladi (Toutant M., 2025, 281-282). Masalan, taqqoslov qo‘shimchasi -roqning bir bo‘limni deyarli yakka o‘zi “oqlab” turishi yoki grammatik shakllarning alohida leksik birlik kabi berilishi muallif uchun to‘liq tasnifning o‘zi muhimroq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, lug‘at ayrim joylarda “mêler des noms propres aux noms communs” tamoyiliga ham yo‘l qo‘yadi: umumiy otlar bilan bir qatorda xos ismlar va etnonimlarni ham keltiradi. Tolui, Chag‘atoy, Baraq, Qoraqorum, Barlos, Dulday va Nayrun kabi nomlar leksik ehtiyojdan ko‘ra turkiy-mo‘g‘ul siyosiy-genealogik dunyosini eslatadi (Toutant M., 2025, 282-283). Toutant ayniqsa Barloslarga berilgan alohida e‘tibor, Nayrunlarning Chingizxon ulusi bilan bog‘lab izohlanishi va Chingizxon nomining ta‘riflarda eng ko‘p takrorlanishini ta‘kidlaydi; shu tariqa lug‘atning ichida Boburiy hukmron sulolasining ajdodiy xotirasi tiklanadi. Qoraqorumning Chingizxon poytaxti sifatida tilga olinishi ham tasodifiy emas, chunki joy nomlari lug‘atda juda kam uchraydi. Bundan tashqari, Fazlullohning o‘zi

ham Barlos nasabiga mansub bo'lgani uchun bu tanlovlar matnning ichki siyosiy yo'nalishini yanada ravshanlashtiradi.

Mavzuli ro'yxatlarning yakuniy qismida turli uluslar sanab o'tiladi. Bu ro'yxatda chig'atoy uluslari birinchi bo'lib keltiriladi va son jihatdan ham eng batafsil tasvirlanadi: chig'atoylarga oid 39 ulus, o'zbeklarga 21, turkmanlarga 8, qizilboshlarga 11 ulus beriladi; ular orasida birinchi tilga olingani yana Barlos ulusidir (Toutant M., 2025, 284-286). Bu ma'lumotlar na lug'atni o'rganayotgan har qanday shaxs uchun birlamchi amaliy ahamiyatga ega, na kundalik muloqot uchun zarur. Aksincha, ular turkiy-mo'g'il siyosiy olamining "onomastik xotira kartasi"ni hosil qiladi. Qolaversa lug'at muallifi Fazlullohning o'zi ham Barlos urug'idan edi

Yuqorida keltirilgan faktlar *Lug'oti turkiy*ni ikki qatlamli manba sifatida talqin qilishga imkon beradi: bir qatlamda u haqiqatan ham turkiy so'zlarni forsiy izohlar bilan beruvchi foydali manba; ikkinchi qatlamda esa u Barloslardan Chingizxongacha cho'zilgan ajdodiy makonni qayta tiklab, turkiy tilni hukmron tabaqaning tarixiy-madaniy mulki sifatida ko'rsatadi. Toutantning eng muhim xizmatlaridan biri ana shu ikkinchi qatlamni ochib berganida bo'ldi.

XULOSA

Toutantning xulosalari Muzaffar Alam ilgari surgan fors tilining Boburiylar siyosiy madaniyatidagi markaziy o'rni haqidagi tezisni inkor etmaydi, aksincha uni muhim tarzda to'ldiradi. Alam fors tilining davlat boshqaruvi va saroy amaliyotidagi ustun mavqei ko'rsatgan bo'lsa, Toutant shu hukmronlik fonida turkiyning "ikkinchi, ammo muhim" maqomini, ya'ni sulolaviy ramz va legitimatsiya tili sifatidagi vazifasini ochib beradi (Alam M., 1998; Alam M., 2004; Toutant M., 2025).

M. Toutant maqolasining ilmiy yangiligi, avvalo, manbaga yondashuv usulida namoyon bo'ladi. Ilgari *Lug'oti turkiy* ko'proq sharqshunoslik lug'atlarini boyituvchi leksik ombor sifatida tilga olingan, ammo mustaqil tarixiy hujjat sifatida yetarlicha tahlil qilinmagan edi (Toutant M., 2025, 271). Toutant esa uni matnshunoslik, tarix, sulolaviy ideologiya va tilshunoslik kesishgan nuqtada o'qiydi. Natijada bitta qo'lyozma Boburiylar saroyidagi kengroq madaniy dinamikani tushuntiruvchi "kalit matn"ga aylanadi. Muallif fors tilining ustunligini inkor etmaydi; aksincha, aynan shu ustunlik fonida turkiyning boshqa bir maqomini — amaliy boshqaruv tili emas, balki ramziy imperiyalik til maqomini ko'rsatadi. Shu bois "turkiy — podshohlar tili" formulasi lug'atning markaziy siyosiy g'oyasi sifatida talqin qilinadi (Toutant M., 2025, 273-274, 287).

Toutantning kuchli tomoni shundaki, u filologik shakl bilan siyosiy ma'noni uzviy bog'laydi. Grammatik muqaddima, imlo tavsifi, leksik bo'limdagi sun'iy to'ldirishlar va xos ismlar tanlovi u talqinida alohida detallar emas, balki yagona dastur qismlaridir. Mazkur dastur turkiy tilni fors tili singari ilmiy tavsifga loyiq,

nufuzli til sifatida ko'rsatishga xizmat qiladi (Toutant M., 2025, 285-287). Muallifning Mahmud Koshg'ariyning *Dīwān Lughāt at-Turk* asari bilan qiyosiy ishorasi ham shu nuqtada ahamiyatli: har ikki holatda ham lug'atshunoslik tilning madaniy maqomini himoya qilish vositasiga aylanadi (Toutant M., 2025, 287). Bundan tashqari, bu talqin Boburiy tarixini faqat Hindiston ichki siyosati doirasida emas, balki temuriy madaniy maydonning uzoq davom etgan ta'siri bilan bog'lab o'qishga undaydi. Bregel ko'rsatganidek, XV-XVII asrlarda Markaziy Osiyo, Xuroson va Hindiston o'rtasidagi aloqalar uzilmagan, sulolaviy martaba esa mintaqalararo tarixiy xotira bilan mustahkamlangan (Bregel Y., 2003).

Shu bilan birga, ushbu yondashuvning tabiiy chegaralari ham bor. Toutant asosan bitta lug'atga va, ayniqsa, Avrangzeb davri saroy kontekstiga tayanadi; shu sababli natijalarni Boburiylar tarixining barcha davrlariga bir xil tatbiq etish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bobur, Akbar va Avrangzeb davrlari o'rtasidagi farqlar, shuningdek, turkiyning saroy tashqarisidagi real og'zaki qo'llanilishi maqolada ikkilamchi masala bo'lib qoladi. Biroq bu zaiflik emas, balki manbaning o'z tabiatidan kelib chiqadigan cheklovdir, zero bunday lug'atlar Boburiylarning ajdodlar tili bilan aloqasini ko'rsatadigan kam sonli manbalardan biridir (Toutant M., 2025, 268).

Umuman olganda, M. Toutant qo'lyozma lug'atini "sukutdagi tarixiy guvoh" sifatida o'qish mumkinligini isbotlaydi. U til tarixini faqat farmon, maktub yoki she'riy matnlar orqali emas, balki lug'at va grammatikalar orqali ham tiklash mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotning qiymati Boburiylar saroyida turkiyning mavjud yoki nomavjudligini qo'polik kilikda emas, balki uning qanday ma'noda yashab qolganini tushuntirishidadir. Shu jihatdan maqola Temuriylar merosi bilan Boburiylar saroyi o'rtasidagi uzviylikni til va filologiya orqali yoritib, o'zbek va umuman turkey tadqiqotlar uchun muhim metodologik hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alam, M. The pursuit of Persian: Language in Mughal politics. *Modern Asian Studies*, 1998. 32(2), 317–349. <https://doi.org/10.1017/S0026749X98002947>
2. Alam, M. The languages of political Islam: India 1200–1800. - University of Chicago Press, 2004. <https://archive.org/details/muzaffar-alam-the-languages-of-political-islam-india-1200-1800-university-of-chicago-press-2004>
3. Babur, Z. M. The *Bābur-nāma* in English (Memoirs of Babur) (A. S. Beveridge, Trans.). Luzac. 1922. <https://archive.org/details/baburnamainengli01babuuoft>

4. Bregel, Y. An historical atlas of Central Asia. – Brill, 2003.
<https://brill.com/display/title/7490>
5. Eckmann, J. Chagatay manual. - Indiana University, 1966.
https://altaica.ru/LIBRARY/Eckmann_Chagatay%20Manual%201966.pdf
6. Ermers, R. Arabic grammars of Turkic: The Arabic linguistic model applied to foreign languages. – Brill, 1999.
7. Jahangir. The Tūzuk-i-Jahāngīrī, or, Memoirs of Jahāngīr (A. Rogers, Trans.; H. Beveridge, Ed.). Royal Asiatic Society, 1909–1914.
<https://archive.org/details/tuzukijahangirio00jahauoft>
8. Papas, A., & Toutant, M. L'Asie centrale de Tamerlan. - Les Belles Lettres, 2022.
9. Toutant, M. Un empire de mots: Pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mīr 'Alī Shīr Nawā'ī. Peeters, 2016.
10. Toutant, M. Les États spirituels de Muḥammad le Champion (Ḥālāt-i Pahlawān Muḥammad) de Mīr 'Alī Shīr Nawā'ī. Journal of Sufi Studies, 2021. 10(1–2), 29–52. <https://doi.org/10.1163/22105956-bja10014>
11. Toutant, M. Le turk est la langue des rois. Un lexique chaghatay-persan à la cour moghole. In É. Aussant & F. Simon (Eds.), Documenter et décrire les langues d'Asie: histoire et épistémologie. 2025. (pp. 267–291). Société d'histoire et d'épistémologie des sciences du langage. <https://doi.org/10.4000/138nd>

REFERENCE:

1. Alam, M. (1998). The pursuit of Persian: Language in Mughal politics. *Modern Asian Studies*, 32(2), 317–349. <https://doi.org/10.1017/S0026749X98002947>
2. Alam, M. (2004). *The languages of political Islam: India 1200–1800*. University of Chicago Press. <https://archive.org/details/muzaffar-alam-the-languages-of-political-islam-india-1200-1800-university-of-chicago-press-2004>
3. Babur, Z. M. (1922). *The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur)* (A. S. Beveridge, Trans.). Luzac.
<https://archive.org/details/baburnamainengli01babuuoft>

4. Bregel, Y. (2003). *An historical atlas of Central Asia*. Brill. <https://brill.com/display/title/7490>
5. Eckmann, J. (1966). *Chagatay manual*. Indiana University. https://altaica.ru/LIBRARY/Eckmann_Chagatay%20Manual%201966.pdf
6. Ermers, R. (1999). *Arabic grammars of Turkic: The Arabic linguistic model applied to foreign languages*. Brill.
7. Jahangir. (1909–1914). *The Tūzuk-i-Jahāngīrī, or, Memoirs of Jahāngīr* (A. Rogers, Trans.; H. Beveridge, Ed.). Royal Asiatic Society. <https://archive.org/details/tuzukijahangirio00jahauoft>
8. Papas, A., & Toutant, M. (2022). *L'Asie centrale de Tamerlan*. Les Belles Lettres.
9. Toutant, M. (2016). *Un empire de mots: Pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mīr 'Alī Shīr Nawā'ī*. Peeters.
10. Toutant, M. (2021). Les États spirituels de Muḥammad le Champion (Ḥālāt-i Pahlawān Muḥammad) de Mīr 'Alī Shīr Nawā'ī. *Journal of Sufi Studies*, 10(1–2), 29–52. <https://doi.org/10.1163/22105956-bja10014>
11. Toutant, M. (2025). Le turk est la langue des rois. Un lexique chaghatay-persan à la cour moghole. In É. Aussant & F. Simon (Eds.), *Documenter et décrire les langues d'Asie: histoire et épistémologie* (pp. 267–291). Société d'histoire et d'épistémologie des sciences du langage. <https://doi.org/10.4000/138nd>